

IMOM G‘AZZOLIY QARASHLARIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MAZMUNI VA PEDAGOGIK TALQINI

Isoqova Gulnoz Ulug‘bek qizi

Buxoro xalqaro universiteti, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom G‘azzoliyning barkamol avlod tarbiyasiga oid qarashlari chuqur ilmiy va falsafiy-pedagogik tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda allomaning inson kamoloti haqidagi qarashlari yaxlit tizim sifatida talqin etilib, unda axloqiy poklanish, ma‘naviy yetuklik va aqliy taraqqiyot o‘zaro uyg‘un jarayon sifatida asoslab beriladi. G‘azzoliy ta‘limotida tarbiyaning asosiy maqsadi nafsni poklash, qalbni sayqallash hamda ilm orqali komillikka erishishdan iborat ekani ilmiy dalillar asosida ochib beriladi.

Maqolada barkamol shaxsni shakllantirishda oila, ustoz va jamiyatning o‘rni o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi va maqsadga yo‘naltirilganligi pedagogik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, G‘azzoliy qarashlarining zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘unligi va dolzarbligi komparativ tahlil orqali yoritiladi. Tadqiqot natijasida allomaning boy ilmiy-merosiy qarashlari bugungi kunda barkamol, ma‘naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda muhim nazariy va metodologik manba bo‘lib xizmat qilishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: barkamol avlod, farzand, tarbiya, qarash, odob, komillik, ta‘limot, ma‘naviy, insonparvarlik, ma‘naviy fazilatlar, pedagogik, axloqiy, qarash, iymon-e‘tiqod, oila, g‘oya.

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, uning ma‘naviy va intellektual salohiyati bevosita yosh avlodning qanday ruhda tarbiya topishiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, sharq mutafakkirlarining, xususan, Imom G‘azzoliyning tarbiya haqidagi boy ilmiy merosini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma‘naviyatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash — eng ustuvor vazifamizdir.” Mazkur fikr ham barkamol avlod tarbiyasining bugungi kundagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Imom G‘azzoliy o‘z asarlarida inson tarbiyasini faqatgina bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ichki dunyosini poklash, axloqiy kamolotga erishish va ma‘naviy yetuklikni shakllantirish jarayoni sifatida talqin etadi. Uning qarashlarida barkamol inson – bu nafaqat ilmiy, balki yuksak axloq sohibi, iymonli va jamiyatga foyda keltiruvchi shaxsdir.

Mustaqillik yillarida jamiyatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar, fan va ta‘lim tizimining rivojlanishi ajdodlar merosiga nisbatan yangicha, haqqoniy qarashni taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, Abu Homid G‘azzoliy va uning ta‘limotidagi ilg‘or pedagogik g‘oyalarni ajratish va yoshlarga o‘rgatish orqali ularni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash lozim. Abu Homid G‘azzoliy ta‘limotida ifodalangan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, jamiyat taraqqiyoti uchun fidokorlik ko‘rsatish, halol luqma egasi bo‘lish, yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilish kabi tarbiyaviy g‘oyalar alohida didaktik ahamiyatda ega.

G‘azzolining fikricha, yoshlarni barkamollikka etaklovchi asosiy mezon – aql-zakovat, kuchli farosat, sahovat, halol luqma topish hisoblanadi. Shuning uchun ham Abu Homid G‘azzoliyning qarashlari, g‘oyalari o‘ziga xos alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, tarixiy hamda ma‘naviy ildizlariga ega.

Abu Homid G‘azzoliy har bir asarida farzandlar tarbiyasiga alohida urg‘u beradi, yoshlarni jamiyatning kelajagini quruvchilar, deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda, alloma uch xil

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

yoʻnalishdagi olimlar mavjudligini taʼkidlaydi:

1. Oʻzini ham, boshqalarni ham halok etuvchi olimlar.
2. Oʻzini ham, boshqalarni ham saodatga eltuvchi olimlar.
3. Oʻzini halok qilib, boshqalarni saodatga yoʻllovchi olimlar.

Abu Homid Gʻazzoliyning mazkur fikrlaridan ayon boʻladiki, bugungi kunda biz biz mumtoz merosimizga asoslanib taʼlim tizimida “Ustoz-shogird” munosabatlarini tiklashga qilinayotgan harakatimizni oldindan koʻra olgan va ustozlarning sifatlarini ochib bergan. U “Ey, farzand” asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Olimlar suhbatlarida qatnashishga harakat qil; odobdan tashqari soʻz va harakatlar qilma. Jamoat huzurida salom berib kir”.

Allomaning ilmiy asarlarida ustozlar va murabbiylar “olimlar” deb hisoblangan, ular donishmandlarga tenglashtirilgan. Gʻazzoliy taʼlim oluvchilar va taʼlim beruvchi olimlar hamda muallimlar odoblari, ular orasidagi hamkorlik munosabatlariga alohida toʻxtalgan.

Ayniqsa, mustaqillik sharoitida taʼlim muassasalarida “Ustoz-shogird” munosabatlarini tiklash borasidagi sayʼi-harakatlarimiz borasida ham adib fikrlari qimmatli manba boʻla oladi. Chunonchi, Imom Gʻazzoliy “Ilm” kitobida taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilar odoblari haqida batafsil yoritilgan. Unda oʻquvchi-talabalar rioya qilishi lozim boʻlgan odob va zohiriy qoidalarini birma-bir bayon qilgan. Gʻazzoliyning fikricha, oʻquvchi-talabalar bilim egallashida quyidagi axloqiy qoidalarga rioya qilishi kerak:

1. Avvalo yoshlar qalbini jirkanch xulqlar, yomon sifatlardan poklash kerak. Chunki, ilm qalb ibodati, farishtalar qoʻnadigan bir uydur. Gʻazab, gina, hasad, kibr, manmanlik, razil sifatlari qopagʻon itga oʻxshaydi. Farishtalar koʻppaklar orasiga kirmaydi. Ilm nuri qalbgga farishtalar vositasida kiradi. Ilm shunchaki rivoyat emas, balki qalbgga sochiladigan nurdir.

2. Ilm tolibi dunyoning boshqa mashgʻulotlaridan xoli boʻlib, vatandan yiroqda boʻlishi lozim. Boshqa ishlar va kishilar bilan mashgʻul boʻlish ilm olishdan chalgʻitadi. Fikrlar turli tomonga sochilsa, yoshlarda ilmning mohiyatini anglash, haqiqatni bilish qiyinlashadi.

3. Talaba ilm olib kibrlanmasligi, ustoziga qarshi chiqmasligi shart. Balki barcha ishda butunlay jilovini muallimga topshirishi, uning nasihatiga quloq solishi, xizmatini qilishi lozim. Muallimning koʻrsatmalarini goʻzal tarzda eshitishi, unga itoatda boʻlishi, shukri, xursandligi, minnatdorligini izhor etishi lozim.

4. Ilm olishni ixtiyor qilgan talaba jamiyatdagi va odamlar oʻrtasidagi ixtiloflardan oʻzini chetga tutishi zarur. Chunki bu ixtiloflar talabaning aqlini dahshatga soladi, zehni hayratlantiradi, fikrini esa zaif qiladi. Natijada, taʼlim oluvchilar ilm yoʻlida umidsizlikka tushadilar.

5. Tolibi ilm barcha yaxshi ilmlarning birortasini qoldirmasdan oʻrganmogʻi va oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga etmogʻi muhimdir. Ilmlarni oʻrganib qolmasdan, balki ularni chuqurlashtirishi, agar ular barchasini egallashning iloji boʻlmasa, eng muhimlari bilan shugʻullanishi, imkon qadar mukammallashtirishi lozim.

6. Ilm olishda shogird turli ilmlarga kirishib ketmasligi, maʼlum tartib asosida muhimini oʻrganishdan boshlashi lozim. Chunki, inson umri barcha ilmlarni oʻrganishga etmaydi. Shuning uchun, farzandlar oʻz kuchi, aql-zakovatini maʼlum bir sohani oʻrganishga yoʻnaltirishlari zarur.

7. Avvalo bir oʻquv fanini mukammal oʻrganmasdan turib, boshqasiga kirishmaslik kerak. Chunki, ilmlarning zaruriyatiga koʻra tartib-martabasi bor. Bir ilm, ikkinchi ilmga yoʻl vazifasini oʻtaydi. Oʻsha tartib va tadrijiylikka rioya qilingandagina muvaffaqiyat qozoniladi. Ilmning bir sohasini mukammal oʻrganib boʻlgach, undan yuqori darajadagi ilmga kirishmoq lozim.

8. Farzandlar sharaflilarga olib boradigan sabablarni ham bilishlari talab etiladi. Sabablar deganda esa, ikki narsa nazarda tutilayapti: birinchisi, natijasining sharaflil boʻlishi, ikkinchidan, dalilning quvvatli va ishonchli boʻlishi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

9. Talaba maqsadga olib boruvchi ilmni yaxshi bilishi lozim. Maqsadlarga yaqin va yuksak bo'lgan ilmlar maqsadlaridan uzoq bo'lgan ilmlardan afzaldir. Muhim bo'lgan ilmlardan murod ahamiyatli bo'lganlaridir. Ilmi tolibning dunyo va oxiratdagi holatiga bog'liq bo'lgan ilmlar ahamiyatli hisoblanadi.

Imom G'azzoliyning fikricha, tolibi ilmlar yuqoridagi qoidalarni anglashi va tushunib olishi lozim. Shu bilan bir qatorda, ular mavjud kuch-g'ayratlarini ilm olishga sarflashlari zarurligini uqtiradi. Bu fikrlar hozirgi vaqtda biz milliy merosimiz talablari asosida o'quv yurtlarida "Ustozshogird" munosabatlarini tiklashga qilayotgan sa'y-harakatlarimiz uzoq tarixiy va axloqiy ildizlarga egaligidan dalolatdir.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, Imom G'azzoliy butun umrini farzandlar ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan. Alloma o'zining tarbiyaviy yo'nalishdagi asarlarida murabbiylarning ham vazifalari, ya'ni bilim berishda rioya qilishi lozim bo'lgan axloqiy talablarni bayon qilgan.

Abu Homid G'azzoliyning ta'kidlashicha, ilm o'rganish, olimlik, muallimlik ham boshqa kasblardek kasb hisoblanadi. Shuning uchun ham, mol-dunyoni to'plashda bo'lgani kabi, ilm olishda ham to'rt holat mavjud: a) ilmdan foyda ko'rishi, b) uni to'plashi va v) chuqurlashtirishi hamda g) boshqalarga sarflashi (o'rgatishi) kabilar. Bular uning saxiy va fazilatli ekanligini bildiradi. Ilm olib boshqalarga o'rgatish eng ulug' va sharafligini hisoblanadi. Shuning uchun ham, Abu Homid G'azzoliy: "Ey, farzand! Bilimingni oshirishga harakat qil. Qo'lingdan kelganicha g'ayrat qil"¹, deb yoshlarni bilim olish va mazkur bilimlarni chuqurlashtirishga chaqiradi. Alloma ilm o'rganib, unga amal qilmaydigan kishi boshqalarga foyda berib, o'zi ilmdan xoli qolgan daftar yoki narsalarni o'tkirlab, o'zi hech narsani kesa olmaydigan qayroqtoshga yoki boshqalarni kiyintirib, o'zi yalang'och qolgan igna yoki boshqalarga nur berib, o'zi yonib ketadigan chiroqning piligi kabidir, degan o'xshatma gaplardan ham foydalanadi.

Imom G'azzoliy inson qachon ilm berishga kirishsa, ulug' ish yoki katta vazifani zimmasiga olgan bo'ladi, shuning uchun uning odoblari va vazifalarini yodda tutishi lozimligini ta'kidlaydi. Hatto, uning bu boradagi vazifalari sakkizta ekanligini ko'rsatib beradi:

Birinchi vazifa – muallim ta'lim oluvchilarga nisbatan mehribon, shafqatli bo'lishi va ularga o'z bolalari kabi muomala qilishi kerak. Bu fikrni tasdiqlash uchun G'azzoliy payg'ambarning "ota o'z farzandiga qanday bo'lsa, men ham sizlar uchun shundayman", degan hadisni keltiradi.

Xalqimizda "Ustoz otangdan(dek) ulug'" degan naql bor. Mazkur naql paydo bo'lishining sababi, ustoz shogirdga bilim berar ekan, ota-onasi bilmagan hayot qiyinchiliklarini engib o'tish yo'llarini ham o'rgatadi. Uni turli ofat va balolardan asraydi. Shuning uchun ham, muallimning haqqi ota-onaning haqidan ustun qo'yiladi. Chunki, ota farzand vujud va foniy hayotining sababchisi bo'lsa, muallim esa, unga abadiy hayot baxsh etadi. Imom G'azzoliyning yozishicha, bir ustozning shogirdlari xuddi bir ota-ona farzandidek bir-birlariga mehribon bo'lishlari lozim.

Ikkinchi vazifa. Ustoz o'z shogirdlariga xolisona bilim berishi, ta'magarchilik qilmasligi lozim. Bilim o'rgatib, mol-dunyo to'plashdan saqlanishi insoniy ijobiy fazilat hisoblanadi. Ilm bilan mol-dunyoni talab qilgan odam esa, kovushning tagini yuzi bilan artgan kishiga o'xshaydi.

Darhaqiqat, yoshlar ustozlardan bilim o'rganishlari barobarida ularning shaxsiy xususiyatlarini ham o'zlashtirib boradilar.

Uchinchi vazifa. Ustoz talaba-yoshlarga lozim bo'lgan nasihatlarini qilishi va ularni noloqiy ishlardan qaytarishi kerak. Agar muallim talabasining ilmni faqat mansab, mol-dunyo, obro', shuhrat qozonishi uchun olayotganini bilib qolsa, uni bu yo'ldan qaytarishi zarur.

To'rtinchi vazifa. Ustoz talabadagi noloqiy sifatlar, undagi kamchiliklarning yo'qotishni muloyimlik, ularning zararini tushuntirish orqali bartaraf qilishi kerak. Muallim o'rnak, namuna

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ko'rsatish metodidan foydalangan holda ilmi toliblarga ta'sir etishi lozim. Ustozlar muloyim, shirinso'z bo'lishlari, ular ta'lim oluvchilarni o'z farzandlari sifatida ko'rishlari zarur. Ular o'quvchilarga nisbatan tan jazosi qo'llamasliklari, ochiqchasiga tanbeh bermasliklari kerak. Chunki, oshkora shaklda tanbeh berish hurmat pardasini yirtib, o'quvchilarda ustozga qarshi chiqishga jur'at paydo qiladi hamda qaysarlikka bo'lgan maylni qo'zg'atadi.

Beshinchi vazifa. Bir ilm sohasini o'rganayotgan ilmi tolibga boshqa sohadagi ilmni qarama-qarshi qo'yish kerak emas. Shu o'rinda Imom G'azzoliy misol keltiradi: masalan, til muallimi fiqh ilmini yomon ko'rsatishga odatlangan, fiqh muallimi esa, hadis va tafsir ilmini bir-biriga qarama-qarshi qo'yishi odobdan emas. Mana shu narsa muallimlar uchun eng yomon axloqdir. Bunday sharoitda ta'lim oluvchilar ikkilanadilar va bilim olishdan bezadilar.

Oltinchi vazifa. Ilm o'rgatishda talabaning ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim murakkab ilmlarni uni tushunish darajasi shunga etgandan so'ng o'rgatish o'rinlidir. O'quvchiga ilmni uning fahm-farosati ko'tarishiga qarab berish lozim. Ta'lim oluvchilar aqlari etmagan narsani o'rganmasliklari lozimki, ularni ilmdan nafratlantirib qo'yadi yoki aqlarini chalkashtirib yuboradi. Olim kishi barcha bilgan ilmlarni har kimga ham oshkor qilavermasligi lozim. Abu Homid G'azzoliyning fikricha, bu o'quvchilarda o'sha ilmni tushunadigan, lekin undan foydalanishga loyiq bo'lgan holatga tegishlidir.

Ettinchi vazifa. Ilmi tolibning zehni past bo'lsa, bilimlarni uning ruhiy holatini hisobga olgan holda soddaroq qilib tushuntirish, o'ziga munosib bo'lgan ochiq ilmlarni o'rgatish lozim. Ustozlar ilmning nozik jihatlarini bunday o'quvchilardan berkitganligini aytmaliklari kerak. Chunki, bu uning ochiq ilmlardagi rag'batini kamaytiradi, qalbga tashvish soladi va o'ziga nisbatan baxillik qilingan, degan gumonga olib boradi. Shu bilan bir qatorda, G'azzoliyning fikricha, har bir shaxs o'z-o'zi va o'z faoliyatiga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi lozim. Chunki, qachonki shaxs o'ziga tanqidiy nuqtai nazardan qarasadagina, u o'zining qanday ishga qodir ekanligini his qiladi.

Sakkizinchi vazifa. Muallim o'zi o'qitadigan ilmni chuqur bilishi, unga amal qilishi lozim. Chunki ilm basirat (qalb ko'zi) bilan, amal esa, ko'z bilan bilinadi. Ilmgga amal qilmaydigan olim johil bo'ladi. Abu Homid G'azzoliyning uqtirishicha, muallimning shogirdlar oldidagi mavqei – qolipning loyga yoki daraxtning soyaga nisbati kabidir. Qolip bo'lmasa, loydan qanday foydalanish mumkin, daraxt egri bo'lsa, soya qachon to'g'ri bo'ladi, - degan ajoyib o'xshatish bilan ustoz-shogird munosabatlarini ochib beradi.

Allomaning ta'kidlashicha, muallimlar va olimlar kishilarga yo'l ko'rsatuvchilardir. Agar bu borada ular noto'g'ri yo'l tutsalar, johil bo'ladi va gunoh qilgan bo'ladi. Zero, ularning yo'ldan toyishlari bilan ko'plab odamlar ham toyiladilar va ularga ergashib ketadilar. Kimki yomon bir odatni joriy qilsa, unga o'sha ishning gunohi va uni qilgan barcha odamlarning gunohi yoziladi.

Yuqorida bayon qilingan tolibi ilm va ustoz-muallim munosabatlarining axloqiy asoslari to'g'risidagi mulohazalar buyuk ilohiyot olami, qolaversa Sharq pedagogikasining asoschisi nomiga mansub Abu Homid G'azzoliyning nazariy hamda amaliy-madrasalarda mudarrisligi tajribasidan kelib chiqqanligi bilan ham ahamiyatli va hayotiydir. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida yoshlarga kasb sirlarini o'rgatish bilan ularni axloqiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash mustaqil jamiyatimizda dolzarb bo'lib turgan paytda buyuk mutafakkir Imom G'azzoliyning pedagogik fikrlari, didaktik g'oyalari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, allomaning mazkur qarashlari yuksak nazariy va amaliy mohiyat kasb etadi.

Abu Homid G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, jamiyatda "tilda olim, qalb va amalda johil" muallimlar ham mavjud. Allomaning ilmiy merosi dinimizni har xil xurujlardan asrash bilan birga, johil olim va muallimlarni insof, diyonat ruhida tarbiyalashda ham muhim manba bo'lib

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

xizmat qiladi. Zero, G‘azzoliy ta’limotining axloqiy hamda texnologik ahamiyati, hozirgi vaqtda o‘quv yurtlarida talaba va muallimlarning o‘zaro munosabatlarini pedagogik asosda ishlab chiqishda dasturulamal bo‘lib hisoblanadi.

Imom G‘azzoliy o‘z asarlarida zamonasining mavjud kamchiliklari, jumladan, olimlardagi salbiy xislatlar, din peshvolarining nopok qilmishlari, Qur‘on, hadis va o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan kishilari fikrlaridan dalil, hujjat keltirish bilan tanqid qilib, o‘quvchini to‘g‘ri yo‘l tanlashga ko‘maklashadi.

Imom G‘azzoliy “Eh‘yo ul-ulum vad din” asarida ilmlarni ikkiga – shariat ilmlari va g‘ayri shariat ilmlariga ajratadi. Uning fikricha, g‘ayri shariat ilmlaridan – tibbiyot, matematika va shunga o‘xshash dunyoviy bilimlarni o‘rganish lozim. Chunki, mazkur bilimlar kishilarni hayotiy zarur ma‘lumotlar bilan qurollantiradi va tafakkur yuritishga undaydi. O‘z navbatida diniy ilmlarda ham dunyoviy masalalarni hal etishga qaratilgan yo‘nalishlar mavjud. Masalan, fiqh ilmi dunyoviy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgan. Demak, faqihlar dunyoviy olimlar hisoblanadilar. Allomaning uqtirishicha, faqih – bu shohning ustozlari va ma‘naviy rahbaridir. U shohning adolat yuzasidan odamlarni boshqarishi, ularni himoya qilishi va ular ishlarida tartib o‘rnatishini kuzatib turishi kerak. Demak, fiqh ilmi din bilan ham aloqadordir, biroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki u dunyo orqali bog‘langan. Uxraviy bilimlar esa, qalb olamiga taalluqli islom axloqiga oid ma‘lumotlarni o‘zida aks ettiradi.

G‘azzoliy fiqh ilmi va faqihlarni tanqid qilib, haqiqiy faqih qanday bo‘lishi lozimligini ulug‘ imomlarning faoliyatidan olingan holatlar va fikrlari asosida ochib beradi. Shu tariqa alloma biror mavzuni yoritarkan, ilmiy odob va an‘anaga ko‘ra, dastlab Qur‘on oyatlarini (asosiy manba), so‘ngra hadislardan (to‘ldiruvchi manba), keyin esa, sahobalar, tobe‘inlar (to‘ldiruvchi), undan so‘ng podsholarning ibratomuz amallaridan dalillar keltiradi. Shuningdek, u keltirilgan hujjat va fikrlarning manbalarini aniq ko‘rsatadi.

Imom G‘azzoliy asarlaridagi yana bir muhim xususiyat belgilangan tartib-qoidalar, nizomlardan Qur‘on farz va sunnatlaridan chetga chiqqan yoki uni atayin buzishga intilgan, soxta olimlik yo‘li bilan mol-dunyo topmoqchi bo‘lganlarga qarshi shiddatli va shafqatsiz kurash ruhi bilan sug‘orilganligidir. Chunonchi “Ixyou ulumid-din” (Din ilmlarini jonlantirish) da yozadilar: “Kitob yozishdagi yana bir maqsadim, asrimiz ahli (zamondoshlarimiz) to‘g‘rilikdan burilib, sarob bilan aldanib yurgani va ilmlarning mag‘zini qo‘yib, qobig‘i bilan qanoatlanganini ochib berishdir”.

Abu Homid G‘azzoliyning inson tafakkurini rivojlantirish borasidagi qarashlari pedagogik nuqtai nazardan diqqatga sazovordir. Alloma narsalarning tashqi ko‘rinishi haqidagi ilmni emas, balki ularning ichki mohiyatini ochib beruvchi bilimlarni haqiqiy ilm deb hisoblaydi. Abu Homid G‘azzoliy islom dunyosida fikrlar rivojlanishiga faol ta‘sir etib, murakkab ilohiy masalalarga javob topishning yangi usul va shakllarini izlashga harakat qildi.

Imom G‘azzoliy g‘oyalarining muhim jihati, unda bir necha asr davomida uyg‘oq tafakkurga oziq bo‘lgan tasavvuf ta‘limotining bevosita ta‘limiy asoslari ishlab chiqilganligidir. G‘azzoliy tafakkur tushunchasini ma‘rifat, maqsad, tazaakkur (yodlamoq), e‘tibor, fikr, iroda, rag‘bat kabilar bilan bog‘lab talqin etadi. Uning fikricha, tafakkur ilm (ma‘rifat) dan hosil bo‘ladi. Ma‘rifatning tafakkurga o‘tishida va inson o‘z-o‘zini takomillashtirishida tazakkur (yodlash) alohida ahamiyat kasb etadi. Tazakkur o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlash bo‘lsa, tafakkur esa ilmni yanada chuqurlashtirish va ko‘paytirish sari intilishdir.

G‘azzoliy kishilarni ilm egallashga undar ekan, ilmning Qur‘on mohiyatini anglashdagi o‘rni hamda insonning axloqiy kamolotida hayot qiyinchiliklarini engishga ko‘maklashuvchi muhim vosita ekanligiga kishilarni ishontiradi.

Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Tafakkur kitobi” risolasida ilmda izchillik, tizimlilik,

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

tadrijiylik tamoyillariga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning uqtirishicha, ilmlar maxsus tartibga ko'ra jamlansa va bir-biriga moslashtirilsa, mazkur jarayonda muayyan "natija" kelib chiqadi. Ilmning chegarasi yo'q, faqat insonning imkoniyatlari cheklangan. Shunga ko'ra, inson o'z-o'zini rivojlantirish dasturiga ega bo'lishi, o'zini taftish qilishi, shular asosida o'zining bilim darajasini anglashi zarur. U o'zi biladigan, lekin o'zlashtirilmagan, hayotga tatbiq etmagan bilimlari ro'yxatini tuzib olgach, o'zlashtirgan, ko'nikma va malaka hosil qilgan bilimlarini ro'yxatdan o'chirib boradi. Shu tariqa inson komillik sari intiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ma'rifat, tafakkur, diniy bilimlar, axloq-odob o'rtasiga hech qanday chegara mavjud emas. Ularning barchasi yaxlit tarzda inson mohiyatini belgilab beradi. Shuningdek, Abu Homid G'azzoliy fikrning din bilan bog'liq bo'lmagan narsaga taalluqli bo'lishi mumkinligini ham e'tirof etadi.

Allomaning fikricha, ilmni vujudga keltiruvchi omillar tug'ma bo'lishi bilan bir qatorda, ular o'rganish va amaliyot orqali vujudga keladi. Demak, tafakkur va fikr qilishdan maqsad – uning samarasiga erishmoq, ya'ni kamolotga erishishdan iborat. Kamolot esa, lug'aviy ma'nosi etuklik bo'lgan "kamol" so'zining ko'pligidir. U inson taraqqiyotning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

Tafakkur tarbiyasida izchillik va tadrijiylikka amal qilish masalasi ham Abu Homid G'azzoliy e'tiboridan chetda qolmagan. Uning fikricha, ilmlar qalbda maxsus tartibga ko'ra jamlanishi, bir-biriga mos tushishi natijasida boshqa bir ilmning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Shu tariqa natija, ilm va fikr cheksiz davom etaveradi.

Allomaning ta'kidlashicha, ilm egallash, tafakkur yuritish, o'z nafsini idora etish kabilarning barchasini o'z-o'zini takomillashtirish, go'zal axloqiy barkamollikka erishish uchun zarur bo'lgan amallar hisoblanadi.

G'azzoliyning uqtirishicha, ilmni xohlagan va uni o'rganishni istagan kishiga o'rgatish kerak. Ilm kishilarni olimlik darajasiga etkazishda eng asosiy vositadir. G'azzoliyning fikricha, ilm olish va har qanday faoliyatda halollik, poklik, ishni to'g'ri hamda aniq bajarish har bir shaxs odobiga xos xususiyatdir. U olimlar ko'p, lekin ilmga amal qiluvchi kam ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Abu Homid G'azzoliyning tafakkur darajalaridagi ma'siyat bosqichi haqidagi fikrlari ham alohida didaktik ahamiyatga ega. Chunonchi, inson har kuni ertalab uyg'ongach, u o'zining etti a'zosini taftishdan o'tkazishi lozim. Shundagina u o'z tanasi bilan biror gunoh qilgan yoki qilmaganligini o'ylab ko'radi, fikr yuritadi. Inson tiliga nazar solib, g'iybat, yolg'on, o'zini maqtash, boshqalar ustidan istehzo qilish va boshqa makruh amallarni qilgan-qilmaganligini o'ylamog'i lozim. Bunday holatda esa inson o'zini tuzatish choralarini ko'rishi talab etiladi.

G'azzoliyning fikricha, ba'zi ustoz va olimlarni halokatga etaklovchi narsa – shuhratparastlik va mashhurlikka intilish illatlari hisoblanadi. Zero, insonning asl maqsadi, ilmni yuksaltirish bo'lmay, ilm orqali boylik orttirish, o'zini ko'z-ko'z qilish, o'zgalardan ustunligini namoyish etish, boshqalarga zulm qilish, poraxo'rlik bo'lsa, ular ilmni taraqqiy ettirmay, aksincha uning rivojiga to'sqinlik qiladilar.

Abu Homid G'azzoliyning ta'kidlashicha, qalbning ozig'i va hayot manbai ilmu hikmatdir. Kim ilmni boy bergan bo'lsa, uning qalbi kasaldir, u qalb o'limga mahkum, lekin buni uning o'zi sezmaydi. Olimning jamiyatdagi mavqei qanchalik yuqori bo'lmasin, uning asosiy vazifasi ilm o'rganish va ta'lim olishdan iboratdir, ya'ni u o'zining asosiy vazifasidan chekinmasligi, muayyan darajani egallagach, ilm o'rganishdan to'xtab qolmasligi lozim. Ular maqtanish yoki g'ururlanish uchun ilm egallashlari joiz emas.

Imom G'azzoliy qarashlarida barkamol inson – bu nafaqat ilm egasi, balki yuksak axloq va pok qalb sohibidir. Unga ko'ra, insonning haqiqiy kamoloti uning ichki dunyosi, ya'ni qalbi va

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ruhiy holati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham alloma tarbiyada tashqi bilimdan ko‘ra ichki poklanishga ko‘proq urg‘u beradi. G‘azzoliy fikricha, bola tarbiyasi eng avvalo oilada shakllanadi. Ota-onaning o‘rnak bo‘lishi, ularning axloqiy fazilatlarini farzand kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ustozning ilmiy va axloqiy saviyasi ham shaxs shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Imom G‘azzoliyning barkamol avlod tarbiyasiga oid qarashlari o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, tizimli yondashuvi va ma’naviy-axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi. Allomaning ta’limotida inson kamoloti nafaqat tashqi bilim va ko‘nikmalar, balki ichki poklik, qalb tarbiyasi hamda yuksak axloqiy fazilatlar uyg‘unligida shakllanadigan yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi. Bu esa tarbiyani faqat pedagogik faoliyat emas, balki inson ruhiyatini kamol toptirishga qaratilgan muqaddas va uzluksiz jarayon sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

G‘azzoliy merosida ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, shaxsning ma’naviy dunyosini boyitish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy barqarorlikni shakllantirish kabi jihatlar bugungi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Shu bois, allomaning tarbiya haqidagi qarashlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish barkamol, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz“. Toshkent ,2016.
2. Isoqova Gulnoz Ulug‘bek qizi Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi ISSN 3030-3710(P) ISSN 3030-3095(E) N 9,2025
3. Abdurahmonov, A. (2015). Abu Homid G'azzoliy va uning axloqiy qarashlari. Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti
4. G'azzoliy, A. H. (2006). Ihyo' ulum ad-din (Din ilmlarini yoqtirish). Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
5. Abu Homid G‘azzoliy “Ey farzand”/Toshkent: ”Book Media Shop” MCHJ qoshidagi Munir nashriyoti,2021.-96b
6. www.ziyouz.com
7. <https://www.ziyouz.com/>